



MAMLAKATIMIZNING TURIZM SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY KO'MAKLARNING AHAMIYATI

Ravshanov To'yli Gulmurodovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0000-8357-6061
tiu1990tuyli@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda so'ngi yillarda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanish ahamiyati hamda uning turistlar sonini oshirishdagi roli o'rganilgan. Shuningdek, budjetdan tashqari turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan targ'ibot ishlarini tashkil etish mexanizmlari tadbiq etilgan.

Kalit so'zlar: jamg'arma, turizm, budjet, sayohat, turistik yig'imlar, sayyohlik yarmarkalari.

ВАЖНОСТЬ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ В РАЗВИТИИ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА НАШЕЙ СТРАНЫ

Равшанов Тўйли Гулмуродович
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье изучена важность эффективного использования средств, выделяемых государством на развитие туризма в нашей стране в последние годы, и его роль в увеличении количества туристов. Кроме того, реализованы механизмы организации рекламной деятельности за счет средств внебюджетного фонда поддержки туризма.

Ключевые слова: сбережения, туризм, бюджет, путешествия, туристические сборы, туристические ярмарки.

THE IMPORTANCE OF FINANCIAL SUPPORT IN DEVELOPING THE TOURISM POTENTIAL OF OUR COUNTRY

Ravshanov Tuyli Gulmurodovich
Tashkent State University of Economics

Abstract. In this article, the importance of effective use of funds allocated by the state for the development of tourism in our country in recent years and its role in increasing the number of tourists were studied. In addition, the mechanisms for the organization of promotional activities at the expense of funds from the non-budget tourism support fund have been implemented.

Key words: savings, tourism, budget, travel, tourist fees, tourist fairs.

Kirish.

Turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasi va strategiyasini shakllantirish va ularni izchil amalga oshirish, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va unga o'zaro bog'liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishda davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy ko'maklar roli katta hisoblaniladi.

Mamlakatimizda ham yildan-yilga ushbu tarmoqda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularning startap va innovatsion loyihalarini moliyalashtirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 maydagi "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6002-son Farmoniga muvofiq turizm sohasidagi "startap" loyihalar va innovatsion biznes g'oyalarni moliyalashtirish maqsadida davlat budjetidan 1,5 milliard so'm miqdorida subsidiyalar ajratilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Maxmudovanning (2021) fikricha, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda, qulay raqobatchilik muhitni shakllantirishda, turizm industriyasi rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda davlat tomonidan ajratilayotgan ko'maklarning o'rni katta ekanligi ta'kidlangan.

Iqtisodchi olim Alimova (2017) fikricha, turizm bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish, marketing konsepsiyasi orqali turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda hududiy turistik klasterlarni shakllantirish bo'yicha ilmiy mulohazalarni keltiradi.

Ruziyevning (2020) fikricha, Avstriyada turizmni rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning qabul qilinishi, sohani qo'llab-quvvatlash borasida huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish hamda tartibga solish, nazorat qilish hamda moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratgan.

Turistik klasterlar siyosatini amalga oshirishda davlatning roli, mazkur tarmoqqa xos bo'lgan klasterlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va ularning tansiflanishi hamda turlari, tashkiliy tuzilmalari hamda agroturizm klasterlarini moliyalashtirish manbalari hukumat o'rni haqida keng ko'lamlil izlanishlar olib borilgan (Azizkulov va Siddiqova, 2021).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, mahalliy olimlarning turizm sohasini raqamlashtirish borasidagi iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Turizm sohasini iqtisodiyotning yetakchi kuchiga aylantirish, tarkibiy o'zgartirish va uni barqaror rivojlantirish, yaratiladigan yalpi ichki mahsulotda, mahalliy budjet daromadlarida turizmning ulushini ko'paytirish, ish bilan bandlikni ta'minlash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2666-son qarori qabul qilingan⁸².

Ushbu qarorga asosan Qo'mita huzuridagi budjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilash hamda Qo'mita huzuridagi budjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan mahalliy va xorijiy

⁸² <https://lex.uz/uz/docs/-3077301>

ishtirokchilar o'rtasida turizmning istiqbolli turlari va yo'nalishlarini, mamlakatning turizm salohiyatini ilgari surish va reklama qilish vazifasi yuklangan.

Turizm sohasi va turizm infratuzilmasini rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash, milliy turizm mahsulotlari va brendlari xalqaro turizm bozorlarida faol targ'ibot qilish maqsadida, 2017-yil 22-martda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 137-son qarori qabul qilingan⁸³.

Ushbu qarorga asosan "Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi hududida turistik (mehmonxona) yig'imni undirish tartibi to'g'risida"gi Nizomlar tasdiqlangan.

Ushbu yangi nizomga asosan mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan 714 ta mehmonxonalar, 1 ta motel, 16 ta xostellar hamda 29 ta boshqa turdagi joylashtirish vositalari uchun yangi tartibdagi turistik yig'imlar undirish belgilangan.

Quyida keltirilgan jadvalda ham ko'rish mumkinki, mazkur nizomga muvofiq joylashtirish vositalari tomonidan to'lanadigan turistik yig'imlar miqdori ushbu muassasalarning xonalari sonidan kelib chiqqan holda to'lanishi amaliyotiga o'tilgan.

1-jadval

Mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalaridan undiriladigan turistik (mehmonxona) yig'imning tabaqalashtirilgan miqdorlari⁸⁴

Joylashtirish vositalari	Xonalar soni	Turistik (mehmonxona) yig'imining miqdori (bazaviy hisoblash miqdorining foizida)
Mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari*: mehmonxonalar, apartotellar, apartamentlar kompleksi (rezidensiya), spa-mehmonxonalar, butik-otellar, motellar, turistik bazalar, turistik lagerlar, palatkali (kemping) lagerlar, o'tovli lagerlar, dam olish zonalari va uylari (markazlari), turistik qishloqlar, kempinglar va boshqalar	40 dan ortiq	15
	11 — 40	10
	10 gacha	5
Sanatoriy-kurort joylashtirish vositalari: sanatoriylar, pansionatlar, yashash mumkin bo'lgan shifoxonalar va boshqalar		10
Dam olish va dam olishni tashkil qilish uchun ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari: dam olish uylari (markazlar, zonalar), sport bazalari va boshqalar		
Yakka tartibdagi joylashtirish vositalari, jumladan (xonalar fondi 5 donagacha bo'lgan): dala hovli, shaxsiy uy, kvartira, ekoferma, tog'dagi uy, qishloqdagi uy, apartamentlar, xostellar va boshqalar		5
Palatkali lagerlar va tunash uchun joylashtirish vositalariga qayta jihozlangan yer usti transporti (mustaqil, turoperator orqali, turistik axborot byurosi va joylashtirish vositalari)		
Mustaqil sayohat qiladigan, palatkali lagerlar va tunash uchun qayta jihozlangan yer usti transportida yashaydigan xorijiy fuqarolar		
Davolash muassasalari		2
Oilaviy mehmon uylari (o'rinlar soni 10 tagacha bo'lib, ularga qo'yiladigan talablarga muvofiq tashkil etilgan) o'tov		
Notijorat maqsadlardagi shaxsiy uylar (kvartiralar)		

⁸³ <https://lex.uz/docs/3137499#3137662>

⁸⁴ <https://lex.uz/docs/-3137499#-3137604>


Xususan, mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari (mehmonxonalar, apartotellar, apartamentlar kompleksi (rezidensiya), spa-mehmonxonalar, butik-otellar, motellar, turistik bazalar, turistik lagerlar, palatkali (kemping) lagerlar, o'tovli lagerlar, dam olish zonalar va uylari (markazlari), turistik qishloqlar, kempinglar va boshqalar)ning xonalari soni 40 tadan ortiq bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining 15 foizi miqdorida, xonalar soni 11-40 tagacha bo'lsa, 10 miqdorida hamda xonalar soni 10 tagacha bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining 5 foizi miqdorida turistik yig'imlar undirilishi belgilangan.

Ushbu nizomning yana bir o'ziga xos jihati oldingi tartibda nazarda tutilmagan oilaviy mehmon uylarini tashkil qilgan yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari uchun ham qulayliklar yaratilgan hamda oilaviy mehmon uylarini tashkil qilgan tadbirkorlik subyektlari o'zlarining uylarida xorijiy turistlarni qabul qilsalar, bazaviy hisoblash miqdorining 2 foizi turistik yig'imlar to'laydilar.

Shu bilan birga, ushbu nizom bilan tashrif buyurgan mehmonlarni qabul qilgani uchun davolash muassasalari, sanatoriy-kurort joylashtirish vositalari hamda palatkali lagerlar va tunash uchun joylashtirish vositalariga qayta jihozlangan yer usti transporti ham xonalar soni qancha bo'lishidan qat'iy nazar har bir tunagan kun uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10-2 foizigacha turistik yig'imlar to'lashi ko'zda tutilgan.

Buning natijasida, budjetdan tashqari turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tushadigan turistik yig'imlar miqdori ham sezilarli darajada ortgan. Umuman olganda 2017-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlar soni 2,7 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 5,3 2,7 mln. nafarga yetgan.

Turistlar sonining ortishi o'z navbatida jamg'armaga tushadigan yig'imlar miqdorining ushbu yillar davomida mos ravishda 24,0 mlrd. so'mdan 52,0 mlrd. so'mgacha ortishiga sabab bo'lgan.



1-rasm. Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga tushgan turistik yig'im miqdori va xorijiy sayyohlar soni dinamikasi⁸⁵

Yuqorida keltirilib o'tilgan jadvaldan ham ko'rish mumkinki, 2019-yil turizm sohasida tom ma'noda eng rivojlangan yillardan biri bo'lgan.

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu yilda mamlakatimizga xorijiy davlatlardan 6,7 mln. nafar turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, jamg'armaga tushgan turistik yig'im miqdori 93,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2019-yilda butun dunyoda "Covid-19" pandemiyasining tarqalishi, eng yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishi, global ishlab chiqarish zanjirlari va savdo aloqalarining izdan chiqishi, dunyo moliya bozorlarida xomashyo tovarlari narxining pasayishi va konyunkturaning yomonlashuvini keltirib chiqargan.

Global iqtisodiyot tizimining bir qismi bo'lgan O'zbekiston iqtisodiyotiga ham mazkur omillar ta'sir qilgan, bu esa o'z navbatida ushbu holatning salbiy ta'sirlarini yumshatish bo'yicha samarali oldini oluvchi choralar ko'rishni talab qilgan.


"Covid-19" pandemiyasining tarqalishi natijasida barcha mamlakatlarda bo'lgani singari yurtimizga ham tashrif buyuradigan turistlar soni ham keskin kamayishiga sabab bo'lgan.

Xususan, 2020-yilning 3-oyi davomida mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlar soni 1,5 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, jamg'armaga kelib tushadigan turistik yig'im miqdori ham sezilarli kamayib, 18,0 mlrd. so'mga yetgan.

Mazkur kelib tushgan mablag'lar mamlakatimizning turistik salohiyatini xorijiy davlatlarda targ'ibot qilish, turizm infratuzilmasi obyektlarini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarining loyihaoldi hujjatlarini tayyorlash, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon Turistik Tashkilotiga a'zolik badallari to'lash, hukumat topshiriqlari asosida turizm sohasidagi tadbirlar bilan bog'li bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirish (qoplash) hamda turizm sohasida tadbirkorlik subyektlarini, shu jumladan yosh tadbirkorlarni rag'batlantirish uchun yo'naltirishi nazarda tutilgan.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish, mamlakatimizning turizm salohiyatini xorijiy mamlakatlarda targ'ibot qilish maqsadida, qo'mita huzurida "Milliy PR-markaz" davlat unitar korxonasi tashkil qilingan.

Ushbu korxonaga O'zbekistonning turistik salohiyatini tashqi bozorlarga va respublika hududida targ'ibot qilish uchun Jamg'armaga o'tgan chorak yakunlari bo'yicha tushgan umumiy mablag'larning 20 foizini ajratish belgilangan.



2-rasm. O'zbekistonning turistik salohiyatini tashqi bozorlarga va respublika hududida targ'ibot qilish uchun "Milliy PR-markaz" davlat unitar korxonasi ajratilgan mablag'lar miqdori⁸⁶

⁸⁶ ⁸⁶ O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu mablag'larning ajratilishi natijasida mamlakatimizning turistik salohiyati Belgiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda targ'ibot qilinaagan hamda ushbu davlatlarda 1 250 tadan ortiq informatsion materiallar bosma va elektron OAV nashrlarida joylashtirilgan.

Shu bilan birga, ushbu yillar davomida xorijiy mamlakatlar elchilari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot hamda Butunjahon banklarining, shuningdek g'arbning yirik OAV – "BBC", "CNN" va "Euronews" vakillari bilan 20 tadan ortiq uchrashuvlar o'tkazilgan hamda qator xalqaro turizm forumlari va ko'rgazmalarida 40 ortiq mahalliy turizm tashkilotlariga xorijiy turoperatorlar bilan hamkorlik kelishuvlari o'rnatiliga erishilgan.

"O'zbekiston" milliy turizm stendi Ispaniyada bo'lib o'tadigan "International Tourism Trade Fair", Germaniyada bo'lib o'tadigan "Internationale Tourismus-Börse Berlin", Turkiyada bo'lib o'tadigan "East Mediterranean International Tourism & Travel Exhibition", Yaponiyada bo'lib o'tadigan "Tourism Expo Japan" hamda boshqa 10 tadan ortiq xalqaro sayyohlik yarmarkalarida har yili targ'ibot qilib borish imkoniyati yaratilgan.

100 dan ortiq xorijiy OAV va kompaniyalarning 400 dan ortiq vakillari uchun ("PBS" (AQSh), "Trans7" (Indoneziya), "REN TV" (RF) telekanallari) hamda "Yo'qotilgan avokado" suratga olish guruhlarini uchun O'zbekistonga sayohat uyushtirish ishlari amalga oshirilgan.

Bundan tashqari, mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish hamda ularning qolish kunlarini uzaytirish maqsadida, hududlarning turistik salohiyatidan kelib chiqqan holda turli xil madaniy tadbirlar tashkil etilib kelingan.

Xususan, Farg'ona shahrida "Hunarmandlar" festivali, Navoiy shahrida "So'zana" festivali, Xorazm viloyatida "Bahodirlar o'yini" hamda "Raqs sehri", Surxondaryo viloyatida "Baxshichilik" sa'nati festival hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida "Stixiya" hamda "Mo'ynak" avtorallilari tashkil etilgan.

Musurmon mamlakatlaridan tashrif buyurayotgan turistlar sonini yanada oshirish hamda diversifikatsiya qilish maqsadida Buxoro viloyatida birinchi marotaba "Ziyorat turizmi" haftaligi tashkil etilgan.

Shuningdek, musulmon mamlakatlaridan tashrif buyurayotgan sayyohlar uchun "halal.uzbekistan.travel" platformasi hamda "Masjid Finder Uzbekistan" mobil ilovasi ham yaratilgan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun "Milliy PR-markaz" davlat unitar korxonasi 2017-yilda 4,8 mlrd. so'm, 2018-yilda 10,4 mlrd. so'm, 2019-yilda 18,6 mlrd. so'm, 2020-yil 3,6 mlrd. so'm hamda 2021-yilda 8 mlrd. so'm miqdoridagi mablag'lar ajratilgan.

"Covid-19" pandemiyasi bilan bog'liq bo'lgan salbiy oqibatlarni bartaraf etish hamda ushbu sohada faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-son Farmoni qabul qilingan.


Ushbu Farmonga muvofiq 2020-yil 1-apreldan 1-iyulgacha bo'lgan davrda turistik (mehmonxona) yig'imini hisoblash va to'lash to'xtatish tartibi joriy etilgan.

Natijada, respublikada faoliyat olib borayotgan 908 ta mehmonxonalar, 4 ta motellar, 2 ta spa salonlar, 1 386 ta oilaviy mehmon uylari, 241 ta xostellar hamda 95 ta tibbiyot va sog'lomlashtirish turizm vositalari egalari ushbu davr mobaynida turistik (mehmonxona) yig'imini to'lashdan ozod etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldagi "Turizm, madaniy meros va sport sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-75-son Farmoniga muvofiq, Turizm va madaniy meros vazirligi tashkil etilgan.

Ushbu Farmon muvofiq vazirlikning turizm sohasini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyati yanada kengaygan hamda ushbu tarmoqni xorijiy mamlakatlarda yanada targ'ibot qilish ishlari jadallashgan.

Xususan, 2022-yilda jamg'armaga 23,0 mlrd. so'm miqdoridagi turistik yig'imler kelib tushgan. Quyida keltirilgan rasmdan ham ko'rish mumkinki, ushbu mablag'larning asosiy qismi, ya'ni 28,3 mlrd. so'm mablag'lar mamlakatning turizm salohiyatini targ'ib qilish uchun foydalanilgan.



3-rasm. 2022-yildagi Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining xarajatlari⁸⁷

Pandemiyaning turizm sohasiga yetkazgan salbiy oqibatlarini yumshatish va ushbu sohani yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, davlat budjetidan ham tegishli miqdordagi mablag'lar ajratilgan.

Buning natijasida, vazirlik, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari faoliyatini saqlash turish uchun 2022-yilda 46,1 mlrd. so'm hamda turizm va madaniy sohalardagi maqsadli dasturlarni moliyalashtirish uchun 29,7 mlrd. so'm ajratilgan.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida yildan-yilga davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'larning miqdori ortib bormoqda. Bunda mablag'larni turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarga yo'naltirish, mablag'larning to'g'ri sarflanishini monitoring qilib borish hamda xorijiy mamlakatlarning yetakchi ommaviy axborot vositalarida yurtimizning turizm imkoniyatlarini targ'ibot qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridan kelib chiqqan holda quyidagi mamlakatimizda ham ushbu taklif etiladi:

1. Turizm sohasini moliyalashtirish va turistik yig'imlarni undirish borasida xorijiy mamlakatlar tajribasidan keng foydalanish;
2. O'zbekistonning turizm salohiyatini budjetdan tashqari turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari hisobidan targ'ibot qilish ishlarini jadallashtirish;
3. Turizm sohasida faoliyat olib borish istagini bildirgan yosh tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblaniladi.

⁸⁷ O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar / Лумепамыпа/ Reference:

Alimova M.T. *Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.*

Azizkulov B.X., Siddiqov A.A. *“Klaster yondoshuvi asosida agroturizmni rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish xususiyatlarini baholash”. Iqtisodiyotda Innovatsiyalar jurnali 1 son | 4 jild | 2021.*

Maxmudova M.R. *“Turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari, vositalari va usullari”. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021-yil.*

Ruziyev Sh.R. *“O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari (xorijiy tajribalar asosida)”. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil.*